

1. Fitrat A. Tanlangan asarlar. II jild. Ma'naviyat nashriyoti. -Toshkent.: 2000. – 31 b.
2. Hayitmetov A. O'zbek adabiyotida xalqchilik va xalqchil uslub haqida. -O'zbek tili va adabiyoti, 1993. – B.13-14.
3. Abdurahmon Sa'diy . Ahmad Yassaviy (Yassaviy kim edi? Maqolalar va hikmatlardan parchalar). To'plab nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi B. Do'stqorayev. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi Meros nashriyoti, 1994. -11 b.
4. Yassaviy A. Devoni hikmat. – Toshkent: Navro'z, 2018. - 250 b.
5. Yassaviy A. Devoni hikmat. – Toshkent: Navro'z, - 2018. -24 b.
6. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. -Toshkent: O'zbekiston, 2002. -370 b.
7. Yassaviy A. Devoni hikmat. – Toshkent: Navro'z, 2018.- 27 b.
8. Yassaviy A. Devoni hikmat. – Toshkent: Navro'z, 2018. - 181 b

---

**Maxsudova Onorxon**, FarDU mustaqil izlanuvchi



---

**ABDUQAYUM YO'LDOSHEVNING "SUNBULANING ILK SHANBASI"  
QISSASIDA SUJET QURILISHI**

<https://zenodo.org/records/19841882>

**Annotatsiya:** Maqolada Abduqayum Yo'ldoshevning "Sunbulaning ilk shanbasi" qissasida syujet elementlarining joylashuvi tahlil etilgan. Yozuvchi mahorati, syujet turlari ilmiy jihatdan asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** syujet, kulminatsi, tugun, yechim, prolog, epilog, xotima, yakun, ekspozitsiya, xronika, retrospektiv

**СЮЖЕТНОЕ ПОСТРОЕНИЕ В РАССКАЗЕ АБДУКАЮМА  
ЮЛДОШЕВА «SUNBULANING IL SHANBASI»**

**Аннотация:** В статье анализируется расположение сюжетных элементов в рассказе Абдукаюма Юлдошева «Сунбуланин ильк шанбаси». Мастерство писателя и типы сюжета научно обоснованы.

**Ключевые слова:** сюжет, кульминация, узел, развязка, пролог, эпилог, заключение, конец, экспозиция, хроника, ретроспектива

**PLOT CONSTRUCTION IN ABDUKAYUM YULDOSHEV'S STORY  
"SUNBULANING ILK SHANBASI"**

**Abstract:** This article analyzes the arrangement of plot elements in Abdukayum Yuldoshev's short story "Sunbulanin Ilk Shanbasi." The writer's skill and plot types are scientifically substantiated.

**Keywords:** plot, climax, tie, denouement, prologue, epilogue, conclusion, ending, exposition, chronicle, retrospective

### Kirish

“Sujet (frans.- predmet, “asosga qo‘yilgan narsa) badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri sanalib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog‘liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti- harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi. Umuman, sujetlilik badiiy adabiyotning xos xususiyatlaridan biri bo‘lib, barcha turdagi badiiy asarlarda ham sujet mavjuddir”<sup>7</sup>. Yozuvchi Abduqayum Yo‘ldoshev qissalarida syujetning bir necha turidan foydalangan. “Sunbulaning ilk shanbasi” qissasi sentimental qissa bo‘lganligi uchun his-tuyg‘ularga yo‘g‘rilgan asar. Qissa bir qarasangiz xronikali, bir qarasangiz konsentrik sujet turiga kiradi. Xronikali syujetda voqealar birin-ketin namoyon bo‘ladi. Konsentrik syujet esa tadqiqot syujet hisoblanadi, chunki bunda asar tugun bilan boshlanadi. Bu jumboq asar qahramoni, hatto yozuvchi uchun ham jumboq bo‘lishi kerak. Shuning uchun ham biz bu asarni xronikali syujet turiga kiritdik.

### Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Badiiy asar syujeti bo‘yicha adabiyotshunoslikka oid asarlarda ta’riflar berilgan. O‘zbek adabiyotida A.Sa’diy, A.Fitrat, I.Sulton, H.Umurov, D.Quronov, T.Boboyev, A.Ulug‘ov kabi olimlarning “Adabiyotshunoslikka kirish”, “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “Adabiyot nazariyasi asoslari” kabi darsliklarda syujet va uning turlari, elementlari, joylashuvi haqida fikr berilgan. Olim D.Quronov syujetning 2 ta turi haqida gapirsa, boshqa olimlar 4 ta turi haqida ma’lumot berishgan. Hozirgi kunda adabiyotshunoslik nazariyasida 2 ta turi faol hisoblanadi.

### Natija va muhokama

“Badiiy asar sujeti ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji va kulminatsiya kabi unsurlardan tashkil topadi. Ekspozitsiya sujetning boshlanish qismi bo‘lib, o‘quvchini asar voqealari kechadigan joy, qahramonlar, asar konflikti yetilgan shart- sharoitlar bilan tanishtiradi”<sup>8</sup>. Abduqayum Yo‘ldoshev “Sunbulaning ilk shanbasi” nomli qissasida ekspozitsiyaning o‘ziga xos uslubda bayon etadi. “... Zohiran, taraddud bir oy qirq kun burun boshlanguchi edi. Baayni, o‘ziga orqavorotdan tarqalgan “Dovdir” laqabini oqlayotganday, hamxonam allanechuk hayajonlangan-to‘liqqan ahvolga tusha borar, qo‘llari qaltirab, yonoqlari pir-pir uchayotganini istagan odam besh gaz naridan ilg‘ab olish mumkin bo‘lib qolgan mahallari esa ich-ichiga botgan besaranjom ko‘zlarida qandaydir telbavor junun uchqunlari o‘ynay boshlardi. Shunda u endi-endi olamni anglab borayotgan go‘dak misoli huda-behudaga o‘z-o‘zidan ma’sumona jilmayaverar, boshqa paytlari bir tuki qilt etmay eshitadigan latifalarni aytib qolguday bo‘lsam, mening har bir so‘zimni hayratlanib, yutoqib tinglardi-da, goh sharaqlab, goh sillasi qotib qolguncha yayrab kulaverardi-kulaverardi”<sup>9</sup>.

Ko‘rinadiki, ekspozitsiyada hikoyachi nutqi muhim. Hikoyachi nutqi orqali asar qahramoni, laqabi, xarakteri namoyon bo‘ladi. Bu muallifning o‘ziga xos mahoratidan dalolat beradi. Demak, asarning boshidan muallif chetga chiqib, asosiy nutq hikoyachi

<sup>7</sup> Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T. Yangi asar avlodi. 2004, B. 107.

<sup>8</sup> Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T. Yangi asar avlodi. 2004, B. 108

<sup>9</sup> Йўлдошев А. Сунбуланинг ilk шанбаси. Т. 1998 йил. Б.3.

nutqidan tasvirlanadi. Uslubda ijodkorning butun ijodi, qobiliyati, uni boshqa ijodkorlardan farq qiluvchi tomonlari namoyon bo'ladi. Ayni paytda uslub yozuvchi mahoratini ham belgilaydigan mezondir. Bu o'z navbatida qissanavis obrazining yorqin chiqishini ta'minlaydi. Qissanavis obrazi yozuvchi tomonidan maxsus yaratilmaydi. Lekin uning qanday chiqishi yozuvchi mahorati va o'zligini qanday namoyon etishiga bog'liq. Shu jihatdan u mustaqil obraz bo'lib, asar tizimidagi boshqa obrazlardan farq qilib turadi. M.Baxtin fikriga ko'ra: "Agar ushbu obraz haqqoniy va teran bo'lsa, u tinglovchi-kitobxonga shu muallif asarini to'la chuqurroq tushunishga yordam beradi"<sup>10</sup>. Asarda ekspozitsiya asarning boshidan tortib, toki muallifning hazilomuz biron shanba ishlasak kerak deb aytgan va unga qahramonning kapalagi uchib norozilik bildirishagacha bo'lgan davrni qamrab oladi. "Xo'sh, uka,- deyman ovozinga beparvo tus berishga urinib, - keng olamda ne gap?". "E, aka,-deydi hamxonam shosha- pisha, go'yo zo'r yangilik aytayotganday, - keng olamda gap ko'p, aka, gap ko'p". "Shu, aka, shanba kuni ishlamasligimiz zo'r-da", deydi u nihoyat yanayam ajoyib gap aytayotganday ko'zlari chaqnab.

Adabiyotshunos olim H.Umurov ta'kidlaganidek: "inson ruhiyatining tahlili, uni chuqur tushunish va tasvirlash mahorati – adabiyotning tub mohiyatini belgilovchi xususiyatlardan biri"<sup>11</sup> sanaladi.

"Sunbulaning ilk shanbasi"da afsus-nadomat, ilinj va umid, g'am va shodlik yonmayon; unda ichki bir tavba-tazarru, ochilmay so'lgan g'unchalar ifori, orzulari kunpaya-kun bo'lgan yigitning dardi-alami, sir-asrori bor. Zotan, bu keyingi omil – yigit ila qiz orasidagi kechmish bir oz pardalanishi ham o'quvchini fikrlashga undaydi"<sup>12</sup>.

"Tugun - asar voqealarining boshlanishiga turtki bo'lgan voqea, asar konflikti qo'yilgan joydir". "Sunbulaning ilk shanbasi" qissasida tugun qahramonning faqat shanba kuni ishlamaylik deb iltimos qilishidan boshlanadi. "Aftidan, kutilgan shanba yaqinlashib qolar, men buni hamxonamning hamma narsani butkul unutib, o'zini tamoman jununlik ixtiyoriga tashlaganidan taxminlardim. Hamxonam orziqib kutilgan kun arafasida mening gaplarimni eshitmay qolar, eshitsa-da, anglamas, biron ishga qo'l urolmas, qo'l urgan taqdirda ham boshlashga boshlar-u, shu zahoti tashlab qo'yar, besaranjom ahvolda xonaga kirib chiqaverar, go'yoki bosib kelayotgan tutqanoqning belgilarini oldindan sezayotgan bemor yanglig', juda bezovta, shu bilan birga nedandir hayiqqan, cho'chigan, bir nimaga goh ishonib, goh ishonmay qolayotgan odam singari garangsib yurardi.

Voqealar rivoji bu asarda voqealar zanjirining davom etishidir. Sujet voqealari bosqichma – bosqich rivojlantirilib boriladi. "Asardagi voqealar rivojining eng yuqori nuqtasi, undagi konflikt benihoya kuchaygan o'rni kulminatsiya deb yuritiladi". Masalan, bu qissada Abduqayum akaning qizni kutish jarayoni kulminatsiya hisoblanadi. Chunki kitobxon asarni o'qish davomida huddi shu joyida qahramonga qo'shilib qizni intiq bo'lib kutadi. Asarning ichiga shunchalik kirib ketadi-ki, kitobxoniga voqealar qanday yakun topadi degan savol tinchlik bermaydi.

## Xulosa

<sup>10</sup> Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. - М., 1975. - С.405.

<sup>11</sup> Умuroв Х. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. Т.: "Фан".1983. – 34 б.

<sup>12</sup> Карим Б. Рухият алифбоси. – Тошкент, Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi bu asarni shunday mohirona yaratgan-ki, hajman qisqa bo'lsa ham qurilish jihatdan puxta tuzilgan shu bilan birga kitobxonning ko'nglidan chuqur joy egallaydi. Qolaversa, kitobxonning miyasiga quyulib kelgan savollar tinchlik bermaydi. Aslida ham asarning qiymati mana shunda.

Abduqayum Yo'ldoshevning badiiy ijodiga xos eng muhim xususiyatlardan biri – voqealar bayoni birinchi shaxs, ya'ni “men” tilidan olib borilishi. Asarlardagi hikoyachi – bo'layotgan voqealarning faol ishtirokchisi, ularning shohidi, yoki ulardan xabardor shaxs. Voqea-hodisalar, qahramonlar ruhiyati yozuvchi tomonidan emas, balki boshqa shaxs – hikoyachi tilidan olib borilgan. Bu esa yozuvchiga qahramonlarni hamda voqea-hodisalarni ham turli nuqtai nazardan ochishga imkon bergan. Yozuvchi o'zini tasvirlayotgan shaxs o'rniga qo'ya olsagina, o'sha shaxs qiyofasiga kira bilsagina, xarakter jonlanadi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T. Yangi asar avlodi. 2004, B. 108
2. Йўлдошев А. Сунбуланинг илк шанбаси. Т. 1998 йил. Б.3.
3. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. - М., 1975. - С.405.
4. Умуров Х. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. Т.: “Фан”.1983. – 34 б.
5. Карим Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018